

## INSON KAPITALINI BOSHQARISHDA OLIY TA'LIM BILAN QAMROV DARAJASINI BAHOLASH USLUBIYOTI

**Tilakov Sherzod Akbarovich**

Qarshi davlat universiteti

tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0004-8583-4975

E-mail: [shatilakov@gmail.com](mailto:shatilakov@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada inson kapitalini rivojlantirishda oliy ta'lim tizimining ahamiyati hamda bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini baholash uslubiyoti ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson kapitali nazariyasining zamonaviy yondashuvlari asosida oliy ta'limga qamrov ko'rsatkichlari, ularni baholash mezonlari hamda iqtisodiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi o'rganilgan. Bitiruvchilarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlari, qamrov darajasi va ularning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni statistik ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Tadqiqot natijasida oliy ta'lim qamrovini baholashning kompleks uslubiy modeli taklif etildi.

**Kalit so'zlar:** inson kapitali, oliy ta'lim, qamrov darajasi, ta'lim samaradorligi, inson kapitalini boshqarish, ta'lim siyosati, iqtisodiy rivojlanish.

### Аннотация

В данной статье научно анализируется значение системы высшего образования в развитии человеческого капитала, а также методология оценки уровня охвата выпускников высшим образованием. В исследовании на основе современных подходов теории человеческого капитала изучены показатели охвата высшим образованием, критерии их оценки и взаимосвязь с экономическим развитием. Кроме того, на основе статистических показателей оцениваются возможности поступления выпускников в высшие учебные заведения, уровень охвата и их роль в формировании человеческого капитала. В результате исследования предложена комплексная методическая модель оценки уровня охвата высшим образованием.

**Ключевые слова:** человеческий капитал, высшее образование, уровень охвата, эффективность образования, управление человеческим капиталом, образовательная политика, экономическое развитие.

### Abstract

This article scientifically analyzes the importance of the higher education system in the development of human capital and the methodology for assessing the level of graduates' coverage by higher education. Based on modern approaches to human capital theory, the study examines indicators of higher education coverage, criteria for their evaluation, and their relationship with economic development. In addition, the opportunities for graduates to enter higher education institutions, the level of coverage, and their role in the formation of human capital are assessed using statistical indicators. As a result of the research, a comprehensive methodological model for evaluating higher education coverage is proposed.

**Keywords:** human capital, higher education, coverage rate, education efficiency, human capital management, education policy, economic development.

## KIRISH

XXI asr iqtisodiyotida inson kapitali mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Inson kapitali tushunchasi shaxsning bilimlari, ko'nikmalari, salomatligi va malakalarini o'z ichiga oladi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi [1].

Inson kapitali nazariyasiga ko'ra, ta'limga investitsiya kiritish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Oliy ta'lim tizimi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash orqali innovatsion iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi. Shu sababli, bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini baholash inson kapitalini boshqarish siyosatining muhim elementi hisoblanadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim qamrovi sezilarli darajada oshirildi. Masalan, 2016-yilda oliy ta'lim qamrovi 9 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 38 foizdan oshdi [2]. Bu esa inson kapitalini rivojlantirishda oliy ta'lim tizimining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirish va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish masalalari qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"gi Farmonida<sup>1</sup> oliy ta'lim bilan qamrov darajasini bosqichma-bosqich oshirish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali inson kapitali salohiyatini rivojlantirish asosiy strategik vazifa sifatida belgilangan [3]. Mazkur konsepsiyaga muvofiq, oliy ta'lim qamrov darajasini oshirish, yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish, xorijiy universitetlar filiallarini ochish hamda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish orqali yoshlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida<sup>2</sup> ta'lim tizimini rivojlantirish, fuqarolarning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilangan [4]. Mazkur qonunda oliy ta'lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim institut sifatida e'tirof etilgan bo'lib, ta'limning uzluksizligi va ochiqligini ta'minlash orqali yoshlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi ta'kidlangan.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da<sup>3</sup> ham inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, unda ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4545884>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabr O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-5013007>

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

darajasini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish vazifalari belgilangan [5].

Mazkur me'yoriy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish inson kapitalini boshqarishning muhim strategik yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Shu sababli bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini ilmiy asosda baholash hamda uning iqtisodiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Inson kapitali nazariyasi iqtisodiy fanlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning asoslari XX asr o'rtalarida T. Schultz va G. Becker tomonidan ishlab chiqilgan. Schultz ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida izohlagan [1], Becker esa inson kapitalini shakllantirish jarayonini iqtisodiy samaradorlik va daromadlar o'sishi bilan bog'lagan [3]. Ushbu yondashuvlar ta'lim tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi rolini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Keyingi bosqichlarda inson kapitali nazariyasi zamonaviy iqtisodiy qarashlar bilan boyitilib, unda ta'lim sifati, bilimlarning amaliy qo'llanilishi va innovatsion salohiyatga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim qamrovi yuqori bo'lgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari yuqori ekanligi empirik jihatdan asoslab berilgan [4]. Shuningdek, OECD tadqiqotlarida ham oliy ta'lim tizimi rivojlangan davlatlarda iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlik darajasi yuqori ekanligi ta'kidlangan [5].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda oliy ta'lim qamrov darajasini baholash muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Unda brutto va netto qamrov ko'rsatkichlari, ta'limga kirish darajasi hamda bitiruvchilarning bandlik ko'rsatkichlari asosiy indikatorlar sifatida qaraladi. Ushbu ko'rsatkichlar ta'lim tizimining nafaqat qamrovini, balki uning samaradorligini ham baholash imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda inson kapitalini boshqarish konsepsiyasi doirasida oliy ta'lim tizimi iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institut sifatida talqin qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimi orqali shakllanayotgan bilim va ko'nikmalar inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mintaqaviy tadqiqotlarda, jumladan O'zbekiston misolida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham oliy ta'lim qamrov darajasini oshirish muhim ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlillar oliy ta'lim qamrovi oshishi inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [2]. Mavjud ilmiy adabiyotlarda oliy ta'lim qamrovini baholashning kompleks uslubiyotlarini takomillashtirish zarurligi qayd etilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar inson kapitalini rivojlantirishda oliy ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq oliy ta'lim qamrov darajasini baholashda yagona metodologik yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi. Mazkur

tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni to'ldiradi va ularni amaliy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda inson kapitalini rivojlantirishda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini baholash maqsadida iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, indeks va iqtisodiy modellashtirish usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot jarayonida milliy va xalqaro statistik ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilinib, oliy ta'lim qamrovi dinamikasi va uning o'zgarish tendensiyalari aniqlashtirildi. Brutto qamrov koeffitsienti, qamrov darajasi va ta'lim samaradorligi indeksi kabi ko'rsatkichlar asosida baholash ishlari amalga oshirildi. Taqqoslash usuli orqali hududlar va vaqt kesimidagi farqlar o'rganildi. Bundan tashqari, oliy ta'lim qamrovi va inson kapitali rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida metodologik model ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini baholash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish taklif etiladi. Bitiruvchilarning oliy ta'lim tizimi bilan qamrov darajasini aniqlash inson kapitalini rivojlantirish siyosatining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Mazkur ko'rsatkich umumiy o'rta ta'lim muassasalarini bitirgan yoshlarning nechta qismi oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinganligini ifodalaydi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Oliy ta'limga qamrov koeffitsienti:<sup>1</sup>

$$Q = \frac{O}{B} \times 100$$

Bu yerda:

Q - oliy ta'lim bilan qamrov darajasi, foizda

O - oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan bitiruvchilar soni

B - umumiy maktab bitiruvchilari soni

Mazkur ko'rsatkich mamlakat ta'lim siyosatining samaradorligini hamda yoshlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini baholash imkonini beradi. Agar ushbu ko'rsatkich yuqori bo'lsa, bu oliy ta'lim tizimining kengayib borayotganligini va inson kapitaliga investitsiyalar ortib borayotganligini bildiradi.

Oliy ta'lim qamrovini baholashda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan biri brutto qamrov koeffitsienti hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich ma'lum yosh guruhidagi aholining qanchasi oliy ta'lim tizimida tahsil olayotganini ifodalaydi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Brutto qamrov koeffitsienti<sup>2</sup>:

$$BQ = \frac{T}{Y} \times 100$$

Bu yerda:

T - oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni

<sup>1</sup> UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing, 2023.

<sup>2</sup> O'sha manba

Y - 18-23 yoshdagi aholi soni

Brutto qamrov koeffitsienti mamlakatdagi oliy ta'lim tizimining rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich ko'pincha mamlakatlarda taqqoslashlarda qo'llaniladi.

Oliy ta'lim tizimining samaradorligini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri ta'lim samaradorligi indeksi hisoblanadi. Ushbu indeks qabul qilingan talabalar soni bilan bitirgan talabalar soni o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Ta'lim samaradorligi indeksi:<sup>1</sup>

$$TSI = \frac{B_t}{T_k}$$

Bu yerda:

B<sub>t</sub> - bitirgan talabalar soni

T<sub>k</sub> - qabul qilingan talabalar soni

Agar indeks qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, bu ta'lim tizimi samaradorligi yuqori ekanligini bildiradi. Agar ko'rsatkich past bo'lsa, bu talabalar o'qishni tark etish darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich oliy ta'lim tizimining ichki samaradorligini baholash imkonini beradi.

Inson kapitalini boshqarishda oliy ta'lim qamrov darajasi muhim indikator hisoblanadi. Ta'lim qamrovi oshishi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- yuqori malakali kadrlar soni ortadi
- innovatsion faoliyat faollashadi
- mehnat unumdorligi oshadi
- iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashadi

Quyidagi jadvalda oliy ta'lim qamrovi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan.

**1-jadval.**

**Oliy ta'lim qamrovi va iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari<sup>2</sup>**

№	Ko'rsatkich	Past qamrov	O'rta qamrov	Yuqori qamrov
1	Oliy ta'lim qamrovi	15 foiz	35 foiz	60 foiz
2	Mehnat unumdorligi	past	o'rta	yuqori
3	Innovatsiya darajasi	past	o'rta	yuqori
4	YaIM o'sish sur'ati	3 foiz	5 foiz	7 foiz

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim bilan qamrov darajasining oshishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, oliy ta'lim qamrovi past bo'lgan mamlakatlarda (taxminan 15 foiz atrofida) mehnat unumdorligi past darajada bo'lib, innovatsion faoliyat sust rivojlanadi. Bunday sharoitda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham nisbatan past bo'lib, o'rtacha 3 foizni tashkil etadi. Bu holat inson kapitalining yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> World Bank. Education Sector Analysis Methodological Guidelines. Washington DC, 2020.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

Oliy ta'lim qamrovi o'rta darajada (taxminan 35 foiz) bo'lgan mamlakatlar ko'rsatilgan. Bu bosqichda iqtisodiyotda malakali kadrlar ulushi ortib boradi, mehnat unumdorligi o'rta darajaga yetadi hamda innovatsion faoliyat asta-sekin rivojlana boshlaydi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari ham oshib, o'rtacha 5 foizni tashkil etadi. Bu holat oliy ta'lim tizimi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Jadvalning uchinchi ustunida oliy ta'lim qamrovi yuqori darajada (taxminan 60 foiz) bo'lgan mamlakatlar aks ettirilgan. Bunday mamlakatlarda yuqori malakali kadrlar ulushi katta bo'lib, innovatsion iqtisodiyot shakllanadi. Natijada mehnat unumdorligi yuqori darajaga ko'tariladi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha 7 foizga yetadi. Bu esa inson kapitali rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning barqaror bo'lishini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim bilan qamrov darajasining oshishi mehnat unumdorligi, innovatsion faoliyat va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining ortishiga xizmat qiladi. Shu sababli inson kapitalini boshqarishda oliy ta'lim qamrovini kengaytirish strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Demak, tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim qamrovining oshishi inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishiga olib keladi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari inson kapitalini rivojlantirishda oliy ta'lim tizimi muhim strategik omil ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini baholash orqali nafaqat ta'lim tizimining ichki samaradorligini, balki uning iqtisodiy rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash imkoniyati mavjudligi asoslab berildi. O'tkazilgan tahlillar oliy ta'lim qamrovi oshishi malakali kadrlar ulushining ortishiga, mehnat unumdorligining yaxshilanishiga, innovatsion faoliyatning faollashuviga hamda umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishiga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu jihatdan, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish inson kapitalini boshqarishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan uslubiy yondashuv oliy ta'lim bilan qamrov darajasini kompleks baholash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu yondashuv qamrov ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni tahlil qilish hamda ta'lim tizimining samaradorligini baholashda amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur modelni qo'llash orqali ta'lim siyosatini takomillashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati kengayadi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, oliy ta'lim qamrov darajasini oshirishda hududlar kesimida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Hududiy oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ta'lim sifati va qamrovini uyg'un holda oshirish zarur. Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali masofaviy va aralash ta'lim shakllarini rivojlantirish, yoshlarning oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim dasturlarini real iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish, bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish hamda ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali inson kapitalining sifati yanada yuksaladi. Shu maqsadda ish

beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, dual ta'lim elementlarini joriy etish va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim samaradorligini baholashda zamonaviy statistik, indeks va kompozit ko'rsatkichlardan foydalanish tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Bu esa ta'lim tizimining rivojlanish darajasini aniqlash, muammoli jihatlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili bo'lib, u iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Schultz T.W. Investment in Human Capital. American Economic Review, 1961.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma'lumotlari.
3. Becker G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. Chicago University Press, 1993.
4. World Bank. World Development Report: Education and Economic Growth. Washington DC, 2020.
5. OECD. Education at a Glance 2022. OECD Publishing.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

**Ingliz tili muharriri:**

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

**Rus tili muharriri:**

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

**Musahhah:**

Karimova Shirin Zoxid qizi

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, mart, 3-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**